

Siz – Xabarovsk markazidasiz

TOP-20



Nimalar qilish mumkin?

Xabarovskda TOP mashg'ulotlar:

- Shaharning asosiy tarixiy ko'chasi – Muravyov-Amurskiy bo'ylab sayr qilish
- 5000 rubllik pul kupyurasida tasvirlangan mashhur Amur (Xabarovsk) ko'prigidan o'tish
- Ulug'vor Amur daryosi bo'ylab kema sayohatiga chiqish
- Admiral Nevelskiy qirg'og'ida daryo shabadasidan bahra olib, kechki vaqtni o'tkazish
- Shaharning eng go'zal va tartibli maskanlaridan biri – N.N. Muravyov-Amurskiy nomidagi bog' yo'laklarini kezish
- O'lka ramzi hisoblangan Amur qoyasiga ko'tarilib, daryo manzarasini tomosha qilish
- Shinam «Severniiy» (Shimoliy) bog'ida o'rdaklar, g'ozlar va toshbaqalarga ovqat berish
- Rossiyaning eng baland ibodatxonalaridan biri bo'lgan Spaso-Preobrajenskiy bosh soborining ulug'vorligidan hayratlanish
- Uzoq Sharq va Xitoy oshxonasi uyg'unligini hamda mahalliy delikateslarni tatib ko'rish
- N.I. Grodekov nomidagi o'lkashunoslik muzeyida mintaqa tarixi va madaniyati bilan tanishish
- Xabarovsk o'lkasi musiqa teatrida unutilmas spektakl tomosha qilish

Xabarovskdan tashqaridagi TOP mashg'ulotlar:

- V.P. Sisoyev nomidagi «Priamurskiy» hayvonot bog'ida 110 dan ortiq yovvoyi jonivorlar va qush turlarini tomosha qilish
- «Ikki aka-uka» (Dvux bratyev) tepaligidan Bolshexextsir davlat qo'riqxonasi, Amur daryosi va Xabarovsk shahrining ajoyib manzarasidan zavqlanish
- Xextsir qo'riqxonasining eng go'zal nuqtasi – Ilon (Zmeinaya) tepaligi cho'qqisiga ko'tarilish
- Iyul-avgust oylarida tabiat mo'jizasi – nilufar (lotos) gullari bilan qoplangan ko'lni tomosha qilish
- Novokamenkadagi g'ayrioddiy va sirli «Toshli sharsharalar»ni ko'rish
- Sikachi-Alyan qishlog'ida qadimiy qoyatosh rasmlari (petrogliflar)ni topish
- Ussuriya taygasining yuragida joylashgan «Durminskoye» xo'jaligida kamyob Amur yo'lbarzlari haqida qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lish
- Amur ustunlari – ulkan tosh polvonlarning ulug'vorligidan hayratga tushish
- Amurda baliq ovlash hamda cho'rtan baliq yoki mahalliy laqqa baliqni tutish



CENTRUMAIR

CENTRUM
HOLIDAYS



Nimalarni olib kelish mumkin?

- Go'shtli delikateslar: los, yovvoyi cho'chqa, ayiq go'shtidan tayyorlangan kolbasa hamda xom dudlangan bug'u go'shti
- Kedryong'og'i
- Quritilgan baliq
- Qizil ikra
- Limonnik murabbosi



Nimalarni tatib ko'rish kerak?

- Brusnika, golubika va moroshka sousi bilan tayyorlangan «Taksa» baliq pashteti
- Byansi – baliqli chuchvara
- Talu – yangi muzlatilgan qizil baliq filesidan tayyorlangan stroganina
- Qirqquloq solingan taomlar
- Qizil baliqli Uzoq Sharq salati

